FAYNBERG GULBOG'I

Odinayev Abbosbek
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Zafar Abdusamadov
Ilmiy rahbar:Ingliz tili 3-fakulteti dekani
https://doi.org/10.5281/zenodo.7729574

Annotatsiya: Ushbu maqolada rusizabon shoir Aleksandr Arkadyevich Faynbergning nafaqat she'riyatdagi, balki boshqa sohalardagi ijod namunalarining tahlili boradi. Maqola orqali shoir o'z asarlarida qanday mavzularni olib chiqqanligi hamda kitobxonga aynan nimani yetkazmoqchi bo'lganligini bilib olasiz. Bunda Faynberg ijod yo'lidagi turli xil qiyinchiliklar, uni haqiqiy shoir bo'lib yetishishiga xizmat qilgan omillar borasida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: Taxtapul, shoir ichki dunyosi va zamonasi, "Amerika ovozi", "Saodat sohili", kuz, "Paxtakor-79", ssenarist, tarjimon.

Toshkent. Taxtapul. Quyoshli yurtimizning she'riyatida o'chmas iz qoldirgan, so'z qudratini ommaga namoyish qila olgan zabardast shoirlardan biri Aleksandr Arkadyevich Faynbergdir. Ko'pincha she'riyat ahli asarlarida ikki narsa ta'siri va tasviri uchraydi: shoirning zamonasi hamda ichki dunyosi. Bilamizki, har bir shaxsning yo'lida uni haqiqiy insoniy qobiliyatlar bilan tarbiyalaydigan qiyinchiliklar bo'ladi. Shoir ham bundan mustasno emas, uning hayot yo'li ham bir tekisda ketmagan. Texnikumda o'qigan, armiyada xizmat qilgan, topografiyada ishlagan, aynan mana shu davrda u she'riyat gulbog'i barpo qila olishini anglagan va she'rlar yoza boshlagan. "...- Aslida 9 yoshlarimda she'r yozishni boshlaganman, lekin uni hech ham ijod deb bo'lmasdi, eslasam, haligacha kulgim keladi, haqiqiy ijod bilan armiyadan keyin shug'ullana boshlaganman, rostini aytganda, ijod sening xohishlaring bilan hisoblashib o'tirmaydi, xohlagan vaqtida keladi. Topografiyada ishlab yurganimda shundoq bo'ynimdan olgan, mana o'shandan beri chinakamiga eng baxtli insonman", - deydi shoir o'z she'riy faoliyati to'g'risida.

1960-yillar.Toshkent Markaziy Osiyoning eng rivojlangan shaharlaridan biriga aylana boshlagan bir davrda turli xil adabiy kechalar, kino, shoirlar bilan uchrashuvlar, spektakllar urf kirgan. Mana shunday adabiy kechalarning eng oldi shoirlaridan biri Faynberg bo'lgan.O'sha davrda mashhurlikning eng cho'qqisida edi, shu sabab uning ijodi bilan qiziquvchilar soni nihoyatda ko'p edi.Sodda qilib aytganda, Faynbergni jamiyat xuddi hozirgi vaqtda o'zining teran fikrlari bilan elda mashhur bloger kabi qabul qilishgan o'sha paytda. Mana shunday kechalarning birida "Amerika ovozi" radiostansiyasidan mehmonlar kelib shoirga betakror ijodi uchun tashakkur

bilidirishgan, ammo shoirni ba’zi bir zamondoshlari amerikaliklar bilan aloqada ayblashgan, shu sababdan shoirga yangi asarlar chop etish uchun nashriyot eshiklari uzoq muddatga yopilgan.Ammo shoir qiyinchiliklar oldida sinmagan, hozirda oltin fondni bezab kelayotgan bir qancha filmlar ssenaristi bo’ldi, rusizabon kitobxonlarga o’zbekcha durdona asarlarning bor ko’rkini rus tilida yoritib berdi.

Shoirning she’riyatdagi gulbog’iga nazar solsak, uning qalamidan faqat bir turdagi she’rlar chiqmaganining guvohi bo’lamiz. Ba’zi she’rlarida hayot falsafasiga yuzlansa, boshqa yana bir she’rida tabiat tasviri, o’sha davrining siyosiy olami kabi mavzular rang barangligini ko’rishimiz mumkin.Misol uchun “Saodat sohili” she’rida o’zining falsafiy qarashlari bilan chiqadi:

Men dengizchilardan bu haqda so’rdim.
Dedilar:- Izlama, ko’ngling bo’lsin to’q,
Barcha dengiz, barcha ummonni ko’rdik,
Saodat sohili yer yuzida yo’q.

Shoir asrlar qa’ridan “saodat sohilini” izlaydi, uni dengizchilardan, osmonu falakdan so’raydi, ammo so’nggi satrlardan anglaymizki, u har bir insonning baxti o’z qo’lida ekanligini tushunib yetadi. Ha, ko’pchiligimiz yonginamizda bo’lgan baxtni izlab uzoqlarga sayohat chiqamiz, ammo sayohat so’nggida achchiq haqiqatni anglab yetamiz:

Baxtimga imkonim o’z qo’limda-ku,
Ijobat aylayman dil xohishini.
-Allo, “Saodat sohili “ kafesimi bu
Stol buyuraman ikki kishilik.

Aleksandr Arkadyevichning yana bir she’riga nazar solsak. Siz-u biz kundalik turmushda usiz hech narsan ifodala olmaydigan “so’z” haqida gap ketadi:

Poyezd kechikishi oddiy voqea,
Samolyotni kutib ichikadi ko’z.
Haqiqiy baxtsizlik, katta fojea-
Gar kechiksa kutilayotgan so’z.

Darhaqiqat, hayotda bu holatning yorqin misollarining juda ko’p guvohi bo’lganmiz. Baz’an bir og’iz shirin so’zini yaqinlaridan qizg’anib, keyin ko’p bora afsus chekkanlar kam deysizmi?! Shoir mana shu she’ri orqali afsusgacha yetib bormay o’z vaqtida dildagi so’zlarni aytib qolishga ulgurish kerakligini ta’kidlaydi.

Tabiatning tasviri keltirilgan she’rlari bir qancha, bular: “ Kuz”, “Chimyon”,”Karpat tog’lari”, “Tong”,”Kuz xazoni”. Har bir shoirning o’z fasli bo’lgani singari Faynberg fasli – kuz edi. U kuzgi yaproqlar to’shalgan yo’laklarda sayr qilishni juda yoqtirardi. Shubhasiz, shu yo’laklarda shoirning qancha asarlari tug’ilgan.

Faynberg o’zbek xalqining og’ir jarohati bo’lmish Paxtakor futbol jamoasining ayanchli halokati haqida eshitib, jamoa xotirasiga bag’ishlab bir qancha asarlar yaratgan, shulardan ikki she’ri : “Paxtakor –79”, “11 metrlik jarima to’pi”. Shu bilan birga jamoa vakillarining yorqin xotirasiga bag’ishlab “Ularning to’pi osmonda” nomli ssenariy yozgan, ushbu ssenariy asosida shu nom ostida hujjatli film ham olingan.

Maysazorda shamol yig’laydi hamon,
Hamon tunlar ko’z yosh to’karsan giiryon
Qayg’urma, biz hamon o’ynaymiz futbol,
Faqat moviy osmon- bizning stadion.

Aleksandr Arkadyevich nafaqat she’riyatda o’z bog’ini yarata olgan shoir balki, mohir tarjimon shu bilan birga bir qator filmlar ssenaristi, serqirra ijodkordir.Ijodkor har bir asari bizga nimanidir yetkazmoqchi bo’ladi. Faynberg faqat rus tilida ijod qilganiga qaramay,uning muxlislarining ko’pchiligini o’zbek kitobxonlar tashkil etadi.U har qanday davrda ham o’zbek va rus adabiyotining o’chmas siymosi bo’lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/15-jahon-she-riyati?download=13512:aleksandr-faynberg-qoralanmaga-qasida-2021

2.https://youtu.be/cxq2s8gYIfE

3.https://youtube.com/watch?v=yXrcD8TQBvQ&feature=share

4.https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/rustam-musurmon-yonib-turar-derazam-har-tun-2009.